

O'ZBEKISTON BAYROG'I 33 YOSHDA.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14208110>

Norqulov Muxtor Mavlonovich

Termiz davlat universiteti akademik litseyi davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi

Abdulakimova Diljahon

Termiz davlat universiteti akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

Har bir xalqning o'z tarixi, udum va an'analari mavjud. Ramzlar odatda ma'lum bir xalqning mentalitetini, orzularini, maqsadlarini ifodalab kelgan. Bu yil bayrog'imizning yurtimiz va dunyo bo'ylab hilpirab turganiga 33 yil to'ldi. Tarixda ramzlar tarixiga nazar soladigan bo'lsak, biz bilgan va bilmagan ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Keeling ramzlardan biri bo'lgan bayroqlar tarixiga bir nazar solsak.

Bayroq nima? Bayroq tayoq, sim va boshqa narsaga mahkamlangan muayyan rang va o'lchamdagi matodan yasalgan ramz yoki belgi. Uni ko'tarib, silkitib va hilpiratib yurish mumkin. Biror bayroqni ko'targan yoki osib qo'ygan odam shu tarzda ma'lum bir mamlakat yoki tashkilotga aloqador ekanini ko'rsatadi deb hisoblanadi. Chamasi, bayroq g'oyasi ming yillar oldin qadimgi ovchi va jangchilar orasida paydo bo'lgan. Buni do'stlari yoki dushmanlari ularni tanib, jangga yoki do'stona uchrashuvga tayyor bo'lishi uchun qilishgan. Shuning uchun katta ehtimol bilan, birinchi bayroqlar hayvonlarning terisi yoki qush patlaridan yasalgan.

Qadimgi Misrda jangchilar tepasiga qush, hayvon yoki biror narsaning tasviri tushirilgan xoda ko'tarib yurishgan. Matodan yasalgan birinchi bayroqlar hindlar va xitoyliklarda paydo bo'lgan. Xitoyliklarda mato bayroqlar taxminan miloddan avvalgi 1100-yildayoq bo'lgan deb taxmin qilinadi. Rim askarlari ham dastlab xodalarda turli xil hayvonlarning tasvirlarini olib yurishgan. Keyinchalik ularda ham mato bayroqlar paydo bo'lgan.

Avval bayroqlar faqatgina xabarlashish, signal berish kabi maqsadlarda ishlatilgan. Mamlakatlar o'z bayroqlariga ega bo'lishlari esa, o'rta asrlarda urushlarda ikki taraf bir-biridan farqlanmoq uchun bayroq ishlatilgan. Shu tariqa har bir mamlakatning o'z bayrog'i paydo bo'la boshlagan.

O'rta asrlarda bayroqlari Yevropada keng tarqalgan bo'lib, tabaqa, uyushma va korxonalar o'z bayrog'iga ega bo'lgan, jumladan, hunarmandchilik sexlari o'zining muayyan ishlab chiqaradigan mahsulotiga qarab o'z bayrog'ini yaratgan.

Masalan : etikdo'zlar o'z bayrog'ida etik sur'atini, arqonchilar arqon , nonvoylar non sur'atini o'z bayroqlarida aks ettirganlar.

Diniy urushlar paytida ham salibchilarning o'z bayroqlari bo'lgan. Qirollik oilalari va zodagonlarning ham o'z bayroqlari bo'lgan. Bu bayroqlarga sulolaning o'ziga xos belgilari qo'yilgan. Chamasi, qizil fonda oq xoch chizilgan Daniya bayrog'i eng qadimgi davlat bayrog'i bo'lsa kerak. Afsonaga ko'ra, u 1219-yilda paydo bo'lgan.




Daniya bayrog'i

Xristofor Kolumb davrida har bir kema qaysi mamlakatga mansub ekanligini bildirish uchun o'zlari bilan bayroq olib yurishlari majburiy bo'lgan. Buning natijasida hozirgi kunimizdagi bayroq sistemasi yaralgan.

O'rta asrlarda turkiy xalqlar orasida u tug'a deb atalib, davlatning rasmiy ramzi hisoblangan.

O'zbek xalqimiz ham o'zining uch yarim ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida o'z davlat atrebutlariga ega bo'lib kelgan. Masalan, o'rta asrlarda Movarounnahrda hukmronlik qilgan barcha sulolalar ham o'z bayroqlariga ega bo'lishgan.

Janglarda askarlar o'z bayroqlarini asrab-avaylaganlar, chunki uni yo'qotish mustaqilligini yo'qotish bilan barobar hisoblangan. Tasavvuf ilmining yirik namoyondasi N.Kubro mo'g'ullarga qarshi kurashda yurt bayrog'iga sodiq qolib, o'z jonidan kechsada, yurt ramzi bo'lmish bayroqni saqlab qolgan.



Qoraxoniylar bayrog'i



Xorazmshohlar bayrog'i

Bizning hududimizda ham bayroqlar juda qadim zamondan paydo bo'lib, biz ularni qadimgi adabiy yodgorliklarda, tasviriy san'at asarlarida ko'rishimiz mumkin. O'zbek davlatchilik taraqqiyotining yuksalgan davri XIV-XV asrlarga, ya'ni Amir Temur va temuriylar davriga to'g'ri keladi. 1370-yil Amir Temur Movarounnahr hukmdori bo'lishi arafasida termizlik ulamo Amir Temurning piri Said Baraka uning tabl va yalov (bayroq) topshirishi bilan birga kelajakda uning hukmdor bo'lishini bashorat qilgan edi.

Sohibqiron Amir Temur saltanatida davlat tug'i adolat, buyuk kuch-qudrat ramzi hisoblangan. "Temur tuzuklari" da qayd etilishicha, yov ustidan shijoat va mardlik ko'rsatib g'alaba qozongan amirlar hamda sipohiy'larga davlat timsollari – tug' va nog'ora in'om qilingan. Bu esa saltanat ramzlari nechog'li baland maqom tutganidan dalolat beradi.



Temuriylar bayrog'i

Davlat bayrog'ida odatda, mamlakat tarixi, milliy qadriyatlari bilan bog'liq muhim voqealar xususidagi turli ramziy suratlar aks ettirilgan. Hozirgi vaqtda

davlat bayroqlarining bayoni barcha mamlakatlarda boshqa davlat ramzlari qatori qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonuni mamlakatimiz mustaqillikka erishgach qabul qilingan dastlabki qonunlardan biri hisoblanadi. Mazkur qonun Davlat bayrog'ining shakli va tuzilishi, uning maqomi, undan qayerlarda va qanday foydalanish tartiblarini belgilab bergan.

Tegishli mutaxassislarining e'tirof etishicha, O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'idagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzini bildiradi. Timsollar tilida bu - yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Bayroqdagi oq rang - muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritkichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Oq rang - poklik, beg'uborlik, soflikni, orzu va hayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsoli. Yashil rang - tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

Qizil chiziqlar - vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini anglatadi. Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq bo'lib, ayni paytda u qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzi ham. Yulduzlar barcha davrlarda ilohiy timsol sanalgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'idagi 12 yulduz tasviri ham tarixiy an'analarimiz, qadimgi yilnomamizga bevosita aloqador bo'lib, o'zbek xalqi madaniyatining qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

"O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonuni 13 moddadan iborat bo'lib, uning 2-moddasida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzi ekanligi, 3-moddasida esa O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining timsoli bo'lishi belgilab qo'yilgan.

Ushbu Qonunning 5-moddasida bayrog'imizning o'lchamlari belgilab qo'yilgan, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining uzunligi 250 santimetr, kengligi 125 santimetr, Moviy rang, oq rang va yashil rangli enlarning kengligi bir xil. Har bir en 40 santimetr, O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining o'rtasidagi oq rangli enning chetlaridan kengligi 2,5 santimetr, qizil hoshiyalar o'tkazilgan. Oq rangli yangi oy va o'n ikkita oq rangli besh qirrali yulduzning tasviri moviy rangli yuqori enning o'rtasidan 75x30 santimetr, to'g'ri to'rtburchakka sig'adigan qilib joylashtirilgan. O'n ikkita oq rangli besh qirrali yulduz diametri 6 santimetrli doiraga sig'adi. Doiralar

orasidagi masofa 6 santimetr. Yulduzlar uzunasiga va tikkasiga quyidagi tartibda joylashadi: yuqori qatorda uchta, oʻrta qatorda toʻrtta va quyi qatorda beshta yulduz. Quyi qatordagi yulduzlar yangi oyning pastki uchidan 3,5 santimetr masofada joylashadi.

52-moddasida esa, Oʻzbekiston Respublikasi Davlat bayrogʻi uchun zid holatlar ham aks ettirilgan, jumladan , Oʻzbekiston Respublikasi Davlat bayrogʻining elementlarini nodavlat tashkilotlari hujjatlarining rekvizitlari yoki reklama materiallariga kiritilishiga yoʻl qoʻyilmaydi. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat bayrogʻining tasviri tushirilgan belgilardan ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oʻtkazish uchun tijorat maqsadlarida foydalanish mumkin emas.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlari Oʻzbekiston Respublikasining Davlat bayrogʻiga oʻxshash boʻlishi mumkin emas.

Xorijiy davlatlar davlat va hukumat boshliqlarining, boshqa rasmiy delegatsiyalarning tashrif buyurishidan 24 soat oldin koʻtariladi va ular joʻnab ketganidan keyin 24 soat mobaynida tushirib qoʻyilishi ushbu Qonunning 6-moddasida belgilab qoʻyilgan.

Oʻzbekiston Respublikasining Davlat bayrogʻi bilan bir vaqtda Qoraqalpogʻiston Respublikasining Davlat bayrogʻi koʻtarilganda, Oʻzbekiston Respublikasining Davlat bayrogʻi (binoning old tomoniga qarab turganda) chap tomondan koʻtarilishi kerak.

Oʻzbekiston Respublikasining Davlat bayrogʻi bilan bir vaqtda xorijiy davlatlar va (yoki) xalqaro tashkilotlar bayroqlari koʻtarilganda Oʻzbekiston Respublikasining Davlat bayrogʻi xalqaro huquq normalariga va diplomatik protokol qoidalariga muvofiq koʻtariladi.

Oʻzbekiston Respublikasining Davlat bayrogʻi xorijiy davlatlar va (yoki) xalqaro tashkilotlar bayroqlari bilan bir xil balandlikda joylashtirilishi hamda bir xil oʻlchamga ega boʻlishi kerakligi Qonunning 7-moddasida belgilangan.

Oʻzbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek Oʻzbekistonda turgan boshqa shaxslar Oʻzbekiston Respublikasining Davlat bayrogʻini hurmat qilishlari shartligi Qonunning 13-moddasida oʻz aksini topgan.



Bundan tashqari, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda davlat ramzlari to'g'risidagi qonunchilikni buzgan shaxslar nisbatan javobgarlik belgilanganligini aytib o'tish lozim.

Ushbu kodeksning 203,203¹ ko'ra, O'zbekiston Respublikasi yoki Qoraqalpog'iston Respublikasining Davlat bayrog'i, Davlat gerbi yoxud Davlat madhiyasi to'g'risidagi qonunchilikni buzish, – fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, – fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 215-moddasiga ko'ra esa, O'zbekiston Respublikasi yoki Qoraqalpog'iston Respublikasining Davlat bayrog'i, Davlat gerbi yoxud Davlat madhiyasiga hurmatsizlik qilish – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi belgilandi.

Bugungi kunda bayrog'imiz davlat ramzi, hokimiyat ramzi bo'lish bilan birga xalqimizning g'ururi, faxridir. Darhaqiqat, dunyoda millat va elatlar, xalqlar va davlatlar ko'p, lekin O'zbekiston bitta. Har bir inson ongu shuuriga Vatanimiz ramzlariga nisbatan chuqur hurmat tuyg'ularini singdirish, umummilliy va ehtirom timsollari bo'lgan bayroq, gerb va madhiyamizni ulug'lash va ardoqlash barchamizning muqaddas burchimizdir.

Toki bayroq bor ekan, millat bor, davlat bor, Vatan bor. O'zbekiston farzandlari qayerda bo'lmasin, qanday natijalarga erishmasin Vatan bayrog'ini ardoqlaydi. Chunki bayroq – hurlik timsoli, ezgulik, tinchlik ramzidir!

Xulosa qilib aytganda, o'sib kelayotgan barkamol avlod ongiga istiqloq g'oyalarini sindirishda davlat ramzimiz-bayrog'imiz tarixini o'rgatish ham muhim manbaa hisoblanadi. Yurt bayrog'iga hurmat yoshlarda xalqqa hurmat,uning boy tarixiy merosiga hurmat va faxrlanish hissini tarbiyalaydi va ertangi kunga ishonchni oshiradi.

Bir so'z bilan aytganda O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzidir.

1.O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi.

2.O'zbekiston respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida Qonuni.1991-yil 18-noyabr.

3.A.Temur tuzuklari

4. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy kodeksi

5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi

Termiz davlat universiteti akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi Diljahon Abdulakimova